



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 12-iyun, № 119 (9290)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



BALIQCILIK TARMOG'IDA ILMIY ASOSLANGAN SAMARALI BOSHQARUV YO'LGA QO'YILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 11-iyun kuni baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Baliqchilik oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq aholisi daromadlarini oshirish va suv resurslaridan samarali foydalanishda muhim yo'nalish hisoblanadi. Dunyoda akvakultura jadal rivojlanmoqda. Ikk bor yetishtirilgan baliq hajmi tabiiy suv havzalarida ovlangan baliq miqdoriga oshib ketdi.

Yurtimizda bu sohani rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar bor. O'zbekistonda 173 ming kilometrlik daryo va kanal o'zamlari mavjud. Suv resurslari cheklangan bo'lishiga qaramasdan mamlakatimiz Markaziy Osiyoda baliq yetishtirish hajmi bo'yicha yetakchi o'rinda turibdi. 2025-yilda 206 ming tonna baliq yetishtirilgan.

So'nggi yillarda aholi soni o'sishi bilan oqsilli mahsulotlarga bo'lgan talab ham oshib bormoqda. Baliq esa iqtisodiy jihatdan samarali, parhezboq va aholi salomatligi uchun foydali ozuqa manbaidir. Shu bois oddiy ko'l baliqchiligidan suvni tejaydigan, qayta aylantiradigan va intensiv texnologiyalarga asoslangan tizimga o'tish zarurligi ta'kidlandi.

Taqdimotda 329 ta tabiiy suv havzasi va suv ombori hamda ular atrofidagi 163 ming gektar yer maydonlarini ijaraga berishning yangi, shaffof tizimini joriy qilish,

intensiv baliqchilik va naslchilik xo'jaliklariga har yili zarur miqdorda suv yetkazib berish kafolatlanishi lozimligi qayd etildi.

Bugungi kunda intensiv usulda baliq yetishtirish umumiy ishlab chiqarishning 20 foizidan oshmayapti. Vaholanki, bunday texnologiyalar hosildorlik va daromadni bir necha barobar oshiradi. Agar mavjud imkoniyatlar to'liq ishga solinsa, baliq yetishtirish hajmini 5 barobar ko'paytirish mumkinligi aytib o'tildi.

Sohada yangi texnologiyalarni joriy etish va tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, xususan, yopiq suv aylanma tizimini o'rnatish xarajatlarining bir qismini qoplash, nasli ona baliqlarni import qilish uchun subsidiya ajratish, quyosh panellarini o'rnatish uchun subsidiya berish va aylanma mablag' uchun imtiyozli kreditlar foiz xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilishi lozimligi ta'kidlandi.

Baliqchilik xo'jaliklariga kreditlar ajratish, milliy va xorijiy valyutadagi kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarini qisman qoplash mexanizmlari joriy etildi.

Ushbu imkoniyatlar hisobiga keyingi yilda baliq yetishtirish hajmini 500 ming tonnadan oshirish choralari ko'rish topshirildi.



JAHON SOG'LIQNI SAQLASH TASHKILOTI ISHTIROKIDA ISHLAB CHIQUILGAN DASTUR JORIY ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev onkologik va gematologik tibbiy yordam va palliativ xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish, davlat tibbiyot muassasalari xodimlarini moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizda aholi salomatligini muhofaza qilish, og'ir kasalliklarni erta aniqlash va samarali davolash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, onkologik, gematologik va onkogematologik kasalliklarga chalingan bemorlarga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish, palliativ va xospis xizmatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Taqdimotda saraton kasalliklarining oldini olish, erta aniqlash va davolash tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, aholi o'rtasida eng ko'p uchraydigan saraton kasalliklari bo'yicha maqsadli tibbiy tekshiruvlar bilan qamrab olishni kamida 60 foizga yetkazish, saraton kasalliklariga chalingan bemorlar orasida 5 yillik umr davomiyligi ko'rsatkichini 35 foizdan kamida 45 foizga oshirish maqsad qilingan.

Buning uchun 2027-yildan boshlab Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va xalqaro ekspertlar ishtirokida ishlab chiqilgan saratonga qarshi kurashish bo'yicha Milliy dastur hududlarda bosqichma-bosqich joriy etiladi.

Mazkur dastur doirasida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari xodimlarining

onkologik hushyorligi oshiriladi. Ular saraton kasalliklarining dastlabki belgilarini aniqlash va bemorlarni o'z vaqtida ixtisoslashtirilgan muassasalarga yo'naltirish bo'yicha qayta tayyorlanadi.

Shuningdek, xalqaro tavsiyalar asosida klinik qo'llanmalar qabul qilinadi. Onkologiya yo'nalishida multidissiplinar jamoaviy yondashuv – bir nechta mutaxassis ishtirokida bemorga tashxis qo'yish va davolash taktikasi joriy etiladi.

Eng ko'p uchraydigan saraton kasalliklarini erta tashxislash dasturlari ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich amaliyotga kiritiladi. Bemorlarni qisqa

muddatda tekshiruvdan o'tkazish va tashxis qo'yish imkonini beradigan tezkor tashxislash yo'nalishlari yo'lga qo'yiladi.

Nur terapiyasi xizmatini modernizatsiya qilishga ham alohida e'tibor qaratiladi. Jumladan, eskirgan kobalt qurilmalari bosqichma-bosqich zamonaviy chiziqli tezlatkichlarga almashtiriladi, yuqori dozali braxiterapiya imkoniyatlari kengaytiriladi.

Palliativ va xospis yordamini rivojlantirish masalalariga alohida to'xtalib o'tildi. 2030-yilga qadar aholiga bunday yordam ko'rsatish xamrovi kamida 80 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Buning uchun 2026-yil 1-sentabrdan boshlab respublikada palliativ va xospis yordamini ko'rsatish yagona tizimi tibbiy va ijtimoiy xizmatlar integratsiyasi asosida tashkil etiladi. Palliativ yordamga muhtoj shaxslarni aniqlash, yo'llash, hisobga olish va ularga xizmat ko'rsatish jarayonlari elektron axborot tizimi orqali amalga oshiriladi.

Mobil palliativ brigadalar faoliyati yo'lga qo'yilib, uy sharoitida tibbiy va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish ta'minlanadi. Statistika sharoitidagi palliativ yordam davlat va nodavlat tibbiyot tashkilotlari hamda xospislar tomonidan ko'rsatiladi.



GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHISH VA YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHGA YANGICHA YONDASHUVLAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlikdan himoya qilish, shuningdek, yo'l harakati ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Avvalo, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, ularning analoglari hamda kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning qonunga xilof muomalasi uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan qonun mazmun-hohiyati haqida ma'lumot berildi. Ushbu qonun parlament tomonidan qabul qilingan. Qonun bilan O'zbekiston Respublikasi

Jinoyat kodeksiga "Aholi salomatligi va genofondiga qarshi jinoyatlar" nomli yangi bob kiritilmoqda. Bu orqali aholi, ayniqsa, yoshlar salomatligiga tahdid solayotgan xavfli qilmishlar uchun javobgarlik choralari kuchaytirish ko'zda tutilgan.

Narkojinoyatlarining zamonaviy usul va shakllari inobatga olinib, g'ayriqonuniy

narkolaboratoriya tashkil etish, narkotiklarning noqonuniy muomalasiga rahnamolik qilish, bangxona tashkil etish kabi qilmishlar uchun alohida javobgarlik belgilanmoqda. Shuningdek, 10 dan ortiq xavfli qilmishlar bo'yicha jazo choralari o'zlashtiriladi.

Davlatimiz rahbari ushbu qonun narkojinoyatchilikka qarshi kurashishni yangi

bosqichga olib chiqish, aholi salomatligi va millat genofondini himoya qilishda muhim huquqiy asos bo'lishini ta'kidlab hamda uni imzoladi.

Taqdimotda idoralararo ishchi guruh tomonidan ishlab chiqilgan "Narkotiklar va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar to'g'risida"gi qonun loyihasi haqida ham axborot berildi.



XALQARO BRENDLAR BILAN HAMKORLIK ISTIQBOLLARI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Jeneva shahrida "Better Cotton" xalqaro tashkilotining bosh direktori Nik Uezerill bilan uchrashdi.

Uchrashuv

Unda barqaror paxta ishlab chiqarishni rivojlantirish, xalqaro standartlarni joriy etish va mamlakatimiz paxta-to'qimachilik sanoatining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha hamkorlik natijalari va istiqbollari muhokama qilindi.

Nik Uezerill O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida paxta-to'qimachilik tarmog'ini modernizatsiyalash, eksport salohiyatini kengaytirish va barqaror rivojlanish tamoyillarini ilgari surishga qaratilgan islohotlarni yuqori baholadi.

Mamlakatimizda biznes yuritish uchun yaratilgan qulay sharoitlar, jumladan, korxonalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari, xalqaro sertifikatlarni

joriy qilishni rag'batlantirish mexanizmlari, shuningdek, soliq va bojxona imtiyozlari O'zbekistonda "Better Cotton" dasturini yanada kengaytirishga xizmat qilayotgani e'tirof etildi.

"Better Cotton"ning O'zbekistonda ochilgan ofisi tashkilotning Hindiston va Pokistondan keyingi uchinchi vakolatxonasi bo'lib, respublikaning yuqori salohiyati va paxta yetkazib berish global zanjirlarida roli ortib borayotganidan dalolat berishi alohida ta'kidlandi.

Uchrashuv yakunida qo'shma loyihalarni, shuningdek, mamlakatning paxta va to'qimachilik korxonalariga tanishuv tashriflarini tashkil etish orqali xalqaro brendlar bilan hamkorlikni kengaytirish yuzasidan kelishuvga erishildi.

"Xalq so'zi".

Qonunchilik palatasi qo'mitalarida

MUROJAATLAR QAY DARAJADA HAL ETILMOQDA?

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo'mitasi tomonidan Energetika vazirligining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarida ko'tarilgan masalalarning hal etilish holati va ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi axboroti eshittildi.

Taqdim etilgan axborotga ko'ra 2025-yilda sohaga oid jami 108 310 ta, 2026-yilning yanvar – aprel oylarida esa 40 312 ta murojaat kelib tushgan. Alohida ta'kidlash joizki, o'tgan yildagi murojaatlardan 101 372 tasi qanoatlantirilgan.

Shuningdek, suyuqtilgan gaz ballonlari bilan bog'liq murojaatlar

yuzasidan ham bir qancha ishlar amalga oshirildi. Jumladan, joriy yilning mart oyidan barcha hududlardagi suyuqtilgan gaz iste'molchilariga "Face-id" tizimi orqali manzilli yetkazib berilmoqda.

Eshituv davomida deputatlar tomonidan aholini 35 – 40 kun oralig'ida suyuqtilgan gaz bilan

uzluksiz ta'minlash borasidagi ishlarni to'liq yakuniga yetkazish bo'yicha zarur tavsiyalar berildi.

O'z navbatida, sohada hali o'z yechimini kutayotgan va aholining haqli e'tirozlariga sabab bo'layotgan qator tizimli masalalarga vazirlik rahbariyatining e'tibori qaratildi.



MILLATNING KELAJAGI – BILIM VA MA'NAVIYATDA

Davlatni iqtisodiyot yuksaltiradi, qonunlar tartibga soladi, Qurolli Kuchlar esa uning sarhadlarini himoya qiladi. Bu – inkor etib bo'lmay haqiqat. Biroq dunyo xaritasida o'z o'rnini va qadriga ega bo'lgan har qanday xalqning eng mustahkam qal'asi, uning ma'rifati, ma'naviy immuniteti va ruhiyatidir. Shu ma'noda, joriy yilning 1-iyun kuni davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning madaniyat, san'at va adabiyot sohalari namoyandalari bilan o'tkazgan uchrashuvi hamda bir guruh ijodkorlarga davlat mukofotlarini topshirish marosimi mamlakatimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotida mutlaqo yangi davrni ochib berdi.

Fikr

Uchrashuvda shoir va yozuvchilar, aktyor va rejissyorlar, sozanda, rassom va hunarmandlar ishtirok etar ekan, davlatimiz rahbarining aytilgan gaplari har bir ijodkor qalbidagi eng nozik torlarni titratgan bo'lsa ajab emas: "Bitta yaxshi asar, ta'sirchan qo'shiq millatning ruhini ko'taradi, birgina spektakl jamiyatning tafakkurini uyg'otadi, kinodagi bir obraz butun avlodning qarashini o'zgartiradi". Bu so'zlar shunchaki e'tirof emas, balki bugungi Yangi O'zbekiston sharoitida irod ahliga yuklatilgan yuksak ma'naviy mas'uliyatning ifodasidir.

Uchrashuvning eng muhim amaliy natijalaridan biri sohada mutlaqo yangi tizimning joriy etilishi bo'ldi. Teatr, kino, raqs, folklor, estrada, tasviriy va amaliy san'at kabi 21 ta yo'nalish bo'yicha alohida ijodiy birlashmalar tashkil etilishi belgilandi. Bu tizimning o'ziga xosligi shundaki, ularga, bir tomondan, tajribali ustoz ijodkorlar, ikkinchi tomondan esa vazirlar va yirik kompaniya rahbarlari hamraislik qiladi.

Bu nega muhim? Shuning uchunki, endilikda vazirlar eng quyi pog'onaga tushib, tumanlardagi musiqa maktablari, mahallalardagi badiiy jamoalarning

muammolarini bevosita hal etadi. Har bir yo'nalish bo'yicha "mahalla – tuman – viloyat – respublika" zanjiri asosida tanlovlar o'tkazilib, yosh iste'dodlar kashf etiladi, ularning xalqaro sahnalarga chiqishi davlat tomonidan kafolatlanadi. Yil yakunida o'tkaziladigan Milliy ijodkorlar qurultoyi esa ushbu birlashmalarning o'ziga xos yillik sarhisobi va eng yaxshi ijodkorlarni taqdirlash maydoniga aylanadi.

Prezidentimiz tomonidan e'lon qilingan moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash paketlari esa O'zbekiston tarixida hali kuzatilmagan yuksak darajaga ko'tarildi.

Davlatimiz rahbari sohadagi eng og'irliq nuqtalardan biriga – mualliflik huquqining buzilishi va ijodkorlarning bundan mutlaqo norozi ekaniga jiddiy e'tibor qarar ekan, axborot asrida, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda har bir asarning "raqamli izi" yaratilishi shartli belgilandi.

"Har bir badiiy asar, musiqa, qo'shiq muallifga daromad keltirishi kerak", dedi Prezidentimiz.

Teatr va kino sohasida sog'lom raqobatni yuzaga keltirish uchun xususiy teatrlar ham davlat tomonidan kuchli qo'llab-quvvatlanadi. Ularga 50 ta sahna asari yaratish xarajati qoplanadi va binolar bepul ajratiladi.



AVIATSIYA SOHASIDA ZAMONAVIY EKOTIZIM

Mamlakatimizda aviatsiya sohasida yangi ekotizimni shakllantirish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, hududlardagi 7 ta xalqaro aeroport zamon ta'lablari asosida rekonstruksiya qilinayapti. Mo'ynoq, Qo'qon, Zomin, Shahrisabz, Sariosiyo, So'x tumanlarida yangi aeroportlar barpo etilib, ularning soni 18 taga yetkazildi.



Fakt va raqamlar

Navoiy xalqaro aeroporti faoliyatini loyihaviy boshqaruv tamoyillari asosida tashkil etish ishlari olib borilmoqda. 2030 yilga borib aeroportda parovozlar sonini 2,3 barobar oshirib yiliga 7 mingtaga, yo'lovchi tashish hajmini 150 ming nafarga, yuk tashishni esa 45 ming tonna ga yetkazish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, aeroport hududida havo kemalariga texnik va tijorat xizmatlari ko'rsatishga ixtisoslashtirilgan "porto-franko" erkin zonasi tashkil etiladi.



BALIQCILIK TARMOG'IDA ILMIY ASOSLANGAN SAMARALI BOSHQARUV YO'LGA QO'YILADI

Taqdimotda naslchilik va ilmiy yondashuv masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Sifatli chavoq va yaxshi genetik qurilgan hosildorlikning asosiy sharti ekani ta'kidlandi. Shu bois karp, laqqa, forel, o'syotr kabi baliq turlarining naslini yaxshilash, yangi zotlarni mahalliy iqlim sharoitiga moslashtirish bo'yicha yo'lga qo'yiladi.

Baliqchilik tarmog'ini raqamlashtirish masalasiga ham alohida e'tibor o'tildi. Suvdan foydalanish holati, yer maydonlari, noqonuniy baliq ovlash, soliq to'lovlari, ovlangan baliq mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni birlashtirgan yagona elektron platformani yaratish taklif qilindi. Sohaga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilishni kengaytirish orqali xarajatlarni qisqartirish va mahsuldorlikni oshirish mumkinligi ko'rsatib o'tildi.

Prezidentimiz takliflarni ma'qullab, sohani qo'llab-quvvatlash choralarini yanada kengaytirish zarurligini qayd etdi.

Mutasaddilarga baliqchilik tarmog'ini zamonaviy texnologiyalar, ilmiy yondashuv va samarali boshqaruv asosida rivojlantirish, tadbirkorlar uchun qulay sharoitlar yaratish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va aholi dasturxoniga arzon, sifatli baliq mahsulotlarini yetkazib berish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Kelgusi yildan tog'oldi hududlarda yiliga forel va o'syotr baliqi yetishtirish quvvatlarini yaratish rejalashtirilgan. Baliqchilik ilmiy-tadqiqot instituti uchun Ohangaron daryosi bo'yida tajriba-sinov maydoni tashkil etiladi. Mahalliy karp zotini yaratish bo'yicha xorijiy grantlar jalb etiladi.

Sohada malakali kadrlar tayyorlash ham muhim vazifa sifatida belgilandi. Toshkent davlat agrar universitetida Astraxan davlat texnika universiteti va Xitoyning Dalian okean universiteti bilan hamkorlikda baliqchilik va akvakultura bo'yicha qo'shma fakultet ochish taklifi ko'rib chiqildi.

JAHON SOG'LIQNI SAQLASH TASHKILOTI ISHTIROKIDA ISHLAB CHIQLILGAN DASTUR JORIY ETILADI

Aholining ehtiyojlaridan kelib chiqib barcha hududlarda xospis muassasalari bosqichma-bosqich tashkil qilinadi. Toshkent shahar hududlararo xospisi palliativ va xospis yordamini metodologik boshqarish, hududlarda mazkur xizmatni tashkil etishga ko'maklashish bo'yicha mas'ul muassasa etib belgilandi.

Palliativ va xospis yordamiga muhtojligi elektron axborot tizimida qayd etilgan bemorlarga tibbiy-ijtimoiy ekspertiza komissiyasi tomonidan qo'shimcha tibbiy tekshiruv va ko'riklarisiz nogironlik belgilanadi. Uy sharoitida parvarishga muhtoj bemorlar funksional krovat va maxsus matraslar bilan vaucher tizimi asosida ta'minlanadi.

Shuningdek, mahalla darajasida palliativ yordam ko'rsatish, uy kasalliklarga chalingan bolalar uchun xospis shaklida palliativ yordam ko'rsatish markazining faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Sharoitida qarab turish va parvarish xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini yaratish, bemorlarning oila a'zolari uchun "Oilani qo'llab-quvvatlash" xizmatini yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan.

Taqdimotda gematologik va onkogematologik kasalliklarga chalingan bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish choralarini ham muhokama qilindi.

2026 - 2030-yillarda bunday kasalliklarni erta bosqichlarda aniqlash ulushini amalga 30 - 40 foizdan 60 foizgacha oshirish rejalashtirilgan. Bemorga tashxis

Gematologik kasalliklarga chalingan bemorlarni 100 foiz qamrab olish, hududlarda gemopoeitik o'zak hujayralari transplantatsiyasi amaliyotlarini joriy etish ko'zda tutilmoqda.

Taqdimotda davlat tibbiyot muassasalarida faoliyat yuritayotgan tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini moddiy qo'llab-quvvatlash masalalari ham ko'rib chiqildi. Jumladan, kamida 15 yillik ish stajiga ega xodimlar

farzandlarining respublika oliy ta'lim muassasalari bakalavriatida o'qishi uchun yillik kontrakt to'lovining bir qismini, shuningdek, shunday ish stajiga ega xodimlar ipoteka krediti asosida uy-joy sotib olishida dastlabki badalning bir qismini qoplab berish taklif etildi.

Davlatimiz rahbari takliflarni ma'qullab, ko'rib chiqilgan chora-tadbirlarni sifatli amalga oshirish, hududlarda onkologik va gematologik tibbiy yordamni aholiga yaqinlashtirish, zamonaviy tashxislash va davolash texnologiyalarini joriy etish yuzasidan topshiriqlar berdi.

GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHISH VA YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHGA YANGIQA YONDASHUVLAR

Qayd etilganidek, so'nggi yillarda narkovaziyat jiddiy o'zgarib, an'anaviy giyohvandlik vositalarining o'rni sintetik narkotiklar egallamoqda. Ularni tarqatish usullari ham o'zgarib, asosan, internet orqali kontaktiz shaklda amalga oshirilmoqda. Shuningdek, mamlakat ichkarisida yashirin laboratoriyalar paydo bo'layotgani ushbu sohada huquqiy va tashkiliy mexanizmlarni tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Yangi qonun loyihasida davlat siyosatining 7 ta asosiy yo'nalishi belgilanmoqda. Ular orasida aholi, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarda "giyohvandlikka qarshi immunitet"ni shakllantirish, internet orqali sodir etilayotgan narkojinoyatlarga barham berish, giyohvandlikning barvaqt profilaktikasi, diagnostikasi, davolash va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya tizimini takomillashtirish kabi choralar mavjud.

Loyihada narkotiklar aylanmasi, giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashishda bevosita ishtirok etuvchi 14 ta davlat organining vazifa va vakolatlari aniq belgilanishi nazarda tutilgan. Qonuniy muomaladagi moddalar ustidan davlat nazorati kuchaytirilib, ularni olib kirishdan tortib realizatsiya qilishgacha bo'lgan jarayonlar uzluksiz elektron nazorat qilinadi.

Prekursorlar, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar muomalasini qat'iy tartibga solishni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ham ko'rib chiqildi. Bu borada elektron nazorat tizimini joriy etish, noqonuniy holatlarga qarshi idoralarga hamkorlikni kuchaytirish muhimligi qayd etildi.

Taqdimotda yo'l-transport hodisalarining oldini olish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Ayrim fuqarolar tomonidan voyaga yetmagan shaxslarga transport vositasini boshqarishga ruxsat berilayotgani, bu esa yo'larda o'lim va jiddiy jarohat olish holatlariga sabab bo'layotgani qayd etildi.

DOLZARB MASALALAR MUHOKAMASI



Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi majlisida qator dolzarb masalalar muhokama qilindi. Dastlab talabalarni turarjoy bilan ta'minlash ishlari holati ko'rib chiqildi.

asosiy qismi ijrada yashashga majbur bo'lmoqda. Davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan ayrim yotoqxonalarda yuvinish xonalari sanitariya-gigiyena talablariga to'liq javob bermaydi.

Ushbu qonun bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga nogironligi bo'lgan shaxslarning teng huquqliligini buzganlik uchun javobgarlik belgilanishi, ularga odil sudlovdan foydalanish uchun qulay imkoniyatlar yaratilishi va ushbu shaxslarning murojaati talab etilmagan holda ularga ularni ishga qabul qilgan yoki ularga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari berilishini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Senatlar tomonidan mazkur qonun ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini aniq yo'naltirilgan holda ko'llab-quvvatlash choralarini takomillashtirishga hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng va qulay shart-sharoitlar yaratish orqali ularning turmush darajasini yanada yaxshilashga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Majlisda ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan qo'mita qarorlari qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

Senat qo'mitasida

Ta'kidlanganidek, talabalarni turarjoy bilan ta'minlash uchun davlat-xususiy sheriklik loyihalari asosida 2022 - 2025-yillarda yangi binolarni qurish, mavjud binolarni moslashtirish orqali rekonstruksiya qilish hisobiga 77,9 mingta yangi yotoq o'rni yaratilgan.

2026-yil mart oyi holatiga davlat oliy ta'lim tashkilotlaridagi talabalar turarjoylari soni 391 taga yetkazilgan yoki 159,2 mingdan ortiq talabalarni joylashtirish imkoniyati mavjud. Shu tariqa yotoqxonaga ehtiyoji bor

talabalarni uy-joy bilan ta'minlash darajasi 57 foizga yetkazilgan.

Qo'mita a'zolari o'rganishlariga ko'ra, Namangan viloyatida joylashgan 9 ta oliy ta'lim tashkiloti 5 580 o'rinni 9 ta talabalar turarjoyiga ega. 2022 - 2025-yillar davomida Viloyatda 2 750 o'rinni 5 ta talabalar turarjoyi barpo etilgan.

O'rganish natijasida bu borada jiddiy muammolar ham borligi aniqlandi. Xususan, Namangan viloyatidagi 5 ta nodavlat oliy ta'lim tashkilotining 4 tasida turarjoylar qurilmaganligi sababli talabalarining

talabalarini uy-joy bilan ta'minlash darajasi 57 foizga yetkazilgan.

Qo'mita a'zolari o'rganishlariga ko'ra, Namangan viloyatida joylashgan 9 ta oliy ta'lim tashkiloti 5 580 o'rinni 9 ta talabalar turarjoyiga ega. 2022 - 2025-yillar davomida Viloyatda 2 750 o'rinni 5 ta talabalar turarjoyi barpo etilgan.

MILLATNING KELAJAGI — BILIM VA MA'NAVIYATDA

qiziqarli yangiliklardan biri - sotilgan har bir chiptaga Davlat byudjetidan qo'shimcha 10 ming so'm (hududiy gastrollarda esa 20 ming so'm) bonorlar qo'shib berilishi.

Kino sohasida yaqinda Kann xalqaro festivalida Gran-pri olgan yosh kinoijodkorlar - Suxrob Qodirov va Dilshod Usmonovga 1 milliard so'mlik vaucher topshirilgani butun yosh ijodkorlar uchun zo'r ibarat bo'ldi. "O'zbekfilm"ga milliy maqom berilib, u markaziy kinokonsemsga aylantirildi.

hosi qilishda ijodkor-ziyolilarning raqamli dunyodagi ovozi balandroq yangrashi shart. Zotan, butun xalqimizni "Men O'zbekiston farzandiman!" degan ezu va yagona g'oya atrofida bir qalb, bir tan bo'lib birlashtirish - bugun davlat yaratib berayotgan sharoitlarga nisbatan ijod ahlining eng munosib amaliy javobi bo'ladi.

Uchinchidan, shunchaki diplom berish tizimidan voz kechilib, xalqaro baholash dasturlari, ilg'or xorijiy metodikalar hayotga tatbiq etilmogda. Yoshlarining nufuzi baland xalqaro tanlovlarda, fan olimpiadalarida g'olib bo'layotgani, davlat hisobidan dunyoning eng yetakchi ilm dargohlarida tahsil olayotgani ushbu e'tiborning amaldagi mevasi hisoblanadi.

Davlatimiz rahbarining uzoqni ko'zlagan siyosati bir oddiy haqiqatga tayanadi: iqtisodiy resurslar kun kelib tugashi mumkin, biroq intellektual salohiyat millatning eng bitmas-tuganmas boyligidir.

Bugun ta'lim va madaniyat sohasida qo'yilayotgan har bir dadil qadam, kiritilayotgan milliardlab sarmoyalar O'zbekistonni Uchinchi Rennans poydevori sari yetaklovchi eng ishonchli kuchdir. Bu imkoniyatlardan unumli foydalanish, farzandlarimizni ham bilimni, ham yuksak ma'naviyatni qilib tarbiyalash barchamizning millat oldidagi eng muqaddas burchimiz.

Uchinchidan, shunchaki diplom berish tizimidan voz kechilib, xalqaro baholash dasturlari, ilg'or xorijiy metodikalar hayotga tatbiq etilmogda. Yoshlarining nufuzi baland xalqaro tanlovlarda, fan olimpiadalarida g'olib bo'layotgani, davlat hisobidan dunyoning eng yetakchi ilm dargohlarida tahsil olayotgani ushbu e'tiborning amaldagi mevasi hisoblanadi.

Darhaqiqat, kelajak avlod tarbiyasi maktabdan boshlanadi. Endilikda maktablarda musiqa va tasviriy san'at darslari mutlaqo yangi "art" o'quv dasturi asosida o'tiladi. Bu tizim yangi o'quv yilidan boshlab har bir viloyatda o'ntadan maktabda tajribadan o'tkaziladi. Bola 1-sinfdan oq rasm va musiqa orqali ijodga yo'naltirilsa, yuqori sinflarda dizayn, grafika va sun'iy intellekt yordamida loyihalari qilinadi. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z orzusini bayon qildi: "Mening niyatim - har bir xonadonga musiqa cholg'usi kirib borsin, har bir o'g'il-qizim musiqa chalishni o'rgansin. Chunki san'atni, musiqani sevgan bolaning qalbi toza, tafakkuri keng bo'ladi".

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunning islohotlari shunchaki

Bu yangilanishlar ko'lami va mohiyatini bir necha muhim yo'nalishlarda ko'rish mumkin.

Birinchidan, chekka-chekka qishloqlardagi maktablarning zamonaviy qiyofaga keltirilishi, eng so'nggi texnologiyalar va laboratoriyalar bilan jihozlanishi endi oddiy holga aylandi. Eng muhimi, o'qituvchi kasbining nufuzi tiklandi. Pedagoglarning moddiy ahvoli yaxshilanib, jamiyatdagi ijtimoiy maqomi tubdan o'zgardi. Endi muallim majburiy mehnatdan yiroq, faqat dars va bola tarbiyasi bilan band haqiqiy ziyoli siyosida namoyon bo'lmoqda.

Ikkinchidan, oliy o'quv yurtlariga qabul kvotalarining bir necha barobar oshirilishi, yuzlab yangi xorijiy va

Uchinchidan, shunchaki diplom berish tizimidan voz kechilib, xalqaro baholash dasturlari, ilg'or xorijiy metodikalar hayotga tatbiq etilmogda. Yoshlarining nufuzi baland xalqaro tanlovlarda, fan olimpiadalarida g'olib bo'layotgani, davlat hisobidan dunyoning eng yetakchi ilm dargohlarida tahsil olayotgani ushbu e'tiborning amaldagi mevasi hisoblanadi.

Uchinchidan, shunchaki diplom berish tizimidan voz kechilib, xalqaro baholash dasturlari, ilg'or xorijiy metodikalar hayotga tatbiq etilmogda. Yoshlarining nufuzi baland xalqaro tanlovlarda, fan olimpiadalarida g'olib bo'layotgani, davlat hisobidan dunyoning eng yetakchi ilm dargohlarida tahsil olayotgani ushbu e'tiborning amaldagi mevasi hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunning islohotlari shunchaki

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunning islohotlari shunchaki

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunning islohotlari shunchaki

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunning islohotlari shunchaki

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunning islohotlari shunchaki

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunning islohotlari shunchaki

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunning islohotlari shunchaki

KUN TARTIBIDA — YOSHLAR TA'LIMI VA BANDLIGI

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi a'zosi Gulnora Ma'rufova Toshkent shahri Mirobod va Chilonzor tumanlarida bo'lib, talabalar bilan ochiq muloqot o'tkazdi hamda qator ijtimoiy muassasalar faoliyatini o'rgandi.

O'rganish

Muloqot davomida yoshlarga oid davlat siyosati doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar va belgilangan ustuvor vazifalar haqida so'z yuritildi. Xususan, yigit-qizlarni xorijiy tillar va zamonaviy kasb-hunarlar o'qitish, ularning startap tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Senator tumanidagi ilk rivojlanish markazi faoliyati bilan ham tanishdi. Markazda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, ta'lim-tarbiya jarayoni ko'zdan kechirildi. Markaz rahbariyatiga tibbiyot xonasini zamonaviy uskunalar bilan jihozlash hamda bolalar maydonchasini kengaytirish yuzasidan takliflar bildirildi.

Shuningdek, senator Mirobod tumanidagi 154-umumta'lim maktabidagi robototexnika sinfi faoliyatini ham ko'zdan kechirdi. Robototexnika ta'limini yanada kengaytirish, yuqori yosh toifasidagi o'quvchilarni qamrab olish, qo'shimcha o'quv xonalari tashkil etish va moddiy-texnik bazani mustahkamlash bo'yicha takliflar muhokama qilindi.

Senator xalq deputatlari Chilonzor tumani Kengashi rahbariyati hamda hokimlik mas'ullari bilan birgalikda tumanida ta'lim, aholi bandligini ta'minlash, kasb-hunarga o'qitish va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarida amalga oshirilayotgan ishlar holatini ham ko'zdan kechirdi. Dastlab "Savdo va servis" yuridik shaxslar uyushmasi huzuridagi "Savdo akademiyasi" o'quv markazi faoliyati o'rganildi. Bu yerda chakana savdo sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash, zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish ishleri yo'lga qo'yilgan. Hozirga qadar turli kasblar bo'yicha 816 nafar tinglovchi ta'limni muvaffaqiyatli tamomladi.

Shuningdek, Sharaf mahallasidagi "Fairytale" nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati bilan tanishildi. Zamonaviy talabalar asosida tashkil etilgan muassasa 200 nafar bolani qamrab olish imkoniyatiga ega bo'lib, buning natijasida 50 nafar fuqaro doimiy ish bilan ta'minlangan. Bundan tashqari, Chilonzor tumani Oila va xotin-qizlar maskani faoliyati ham nazardan chetda qolmadi. U yerda xotin-qizlarni huquqiy, psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish, bandligini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilayotgani qayd etildi.

Xususan, maskan huzurida yaqinda ochilgan yangi o'quv markazida xotin-qizlarni zamonaviy kasblarga o'qitish va ularning iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan dasturlar yo'lga qo'yilgan.

O'rganishlar yakunida ta'lim, kasb-hunarga o'qitish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sohaslarida uddalanayotgan ishlar aholi farovonligini oshirish, xotin-qizlar va yoshlarning salohiyatini ro'yogga chiqarish hamda bandlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etayotgani ta'kidlandi.

Senator so'rovi

AHOLI MUAMMOSI E'TIBORDA

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari Oral Ataniyazova Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga senator so'rovi yubordi.

Senatorning Xo'jayli tumanidagi aholi bilan uchrashuvlari va joylarda o'tkazilgan o'rganishlar davomida Sarishung'il mahallasi hududiga oqova suvlar kirib kelayotgani aniqlangan. Mazkur holat esa aholi o'rtasida asosli xavotirlarga sabab bo'lmoqda.

Xususan, 26-may kuni o'tkazilgan o'rganishlar davomida muammoning kelib chiqish sabablarini tahlil qilinib, hududdagi drenaj kollektori qariyb o'n yildan buyon samarali faoliyat yuritmayotgani ma'lum bo'ldi. Shuningdek, uzunligi 6 kilometr bo'lgan drenaj tarmog'i yovvoyi o'simliklar bilan qoplab ketgani oqibatida suv oqimi to'silib, kanallarda suv to'planishi kuzatilgan.

Mutaxassislar xulosasiga ko'ra, kuchli suv toshqini qayd etilmagan bo'lsa-da, mahalla hududiga 10 - 20 santimetr balandlikda suv kirib borgan. Bu esa ayrim uylarning poydevor qismi namlanishiga sabab bo'lgan va turarjoylarning texnik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Qayd etilganidek, mavjud vaziyat kelgusida yer osti suvlarini sathining ko'tarilishi, hududlarning botqoqlashishi hamda ijtimoiy infratuzilma obyektlari faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xususan, mazkur hududda 1091 o'quvchi tahsil olayotgan 6-maktab, 150 nafar tarbiyalanuvchi qamrab olingan 15-maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda qator aholi punktlari joylashgan.

So'rovda mahallada yangi uy-joylar soni ortib borayotgani, bugungi kunda u yerda 6 906 kishi, jumladan, 1 265 ta xonadon va 1 658 ta oila istiqomat qilayotgani inobatga olinib, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada takomillashtirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan. O'z navbatida, mutasaddi rahbarlardan Sarishung'il mahallasidagi oqova suvlar kirib kelayotgan hududda himoya dambasini barpo etish, drenaj tizimini modernizatsiya qilish, zarur gidrotexnik inshootlarni qurish hamda ichki ko'chalarni asfaltlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va rejalashtirilgan chora-tadbirlar yuzasidan asoslantirilgan axborot taqdim etish so'raldi.

"Xalq so'zi".

MUROJAATLAR QAY DARAJADA HAL ETILMOQDA?

Deputatlar tomonidan sohada aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada yaxshilash, mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish, amalga oshirilishi lozim bo'lgan loyihalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash ustidan nazoratni kuchaytirish mazkur sohada murojaatlarning kamayishiga, ayrim holatlarning oldini olishga imkon berishi ta'kidlandi.

Muhokama davomida deputatlar tomonidan sohada ish olib boruvchi xodimlarning malakasini oshirish, vazirlik hududiy boshqarmalarida fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash holatini muntazam o'rganib borish, murojaatlarni

ko'rib chiqish borasidagi ishlar yuzasidan jamoatchilik xabardorligini oshirish bo'yicha zarur tavsiyalar berildi.

Rahmatillo SHUKUROV, qo'mita a'zosi:

— Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash aholini o'yantirayotgan dolzarb masalalarni o'z vaqtida aniqlash va ularga amaliy yechim topishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, energetika sohasida kelib tushayotgan murojaatlarni tahlil qilish, ularni o'z vaqtida va sifatli ko'rib chiqish aholi farovonligini ta'minlash, fuqarolarning turmush sharoitlarini yaxshilashga bevosita



xizmat qiladi. Shu bois yig'ilishda mazkur sohada saylovchilar tomonidan bildirilayotgan murojaatlar va ko'tarilayotgan masalalar atroflicha muhokama qilinib, ularni hal etish yuzasidan mutasaddilarga tegishli tavsiyalar berildi. Yig'ilish yakunida ushbu masala yuzasidan qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

EKOLOGIK TASHABBUSLARNI AMALGA OSHIRISH BORASIDA IZCHIL QADAMLAR

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan kengaytirilgan tadbir o'tkazildi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tadbirida olimlar va ekspertlar Qonunchilik palatasining mamlakat ekologik qonunchiligini takomillashtirishdagi o'rni alohida ta'kidlab, sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlarni qabul qilish, davlat dasturlari ijrosi ustidan parlament nazoratini amalga oshirish hamda ekologik muammolarga yechim topishda hukumat hamda ijro organlari bilan samarali hamkorlik qilishga alohida e'tibor qaratilayotgani qayd etildi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik ekspertiza, chiqindilarni boshqarish, atmosfera havosi muhofazasi, suv va yer resurslaridan samarali foydalanish, o'simlik va hayvonot dunyosini asrash, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda biologik xilmaxlilikni saqlashga qaratilgan qator qonunlar

sohada amalga oshirilayotgan islohotlarga hamohang tarzda takomillashtirilgani urg'ulandi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va xalqaro ekologik majburiyatlarini samarali amalga oshirish maqsadida Qonunchilik palatasida iqlim o'zgarishi oqibatlarini kamaytirish va "yashil" iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirish masalalari bo'yicha komissiya tashkil etildi. Mazkur komissiya iqtisodiyot tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, uglerod chiqindilarini qisqartirish va mamlakatning "yashil" rivojlanish maqsadlariga erishish bo'yicha davlat organlari bilan samarali hamkorlik qilmoqda.

Tadbirida "Mening bog'im" tashabbusi mamlakatimizda ekologik barqarorlikni ta'minlash va fuqarolarning ekologik islohotlardagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan muhim jamoatchilik loyihalaridan biri ekani alohida aytiladi. Ushbu tashabbusni hayotga tatbiq qilishda

Qizilgul QOSIMOVA, qo'mita a'zosi:

— Biz, deputatlar saylov okruglaridagi faoliyatimiz davomida ekologik tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, yashil hududlarni saqlash va ko'paytirish bo'yicha jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga ham alohida e'tibor qaratmoqdamiz. Bu kabi yangi institutlar ekologik siyosatni amalga oshirishda parlamentning ta'sirchan instituti sifatidagi o'rni yanada mustahkamlash, davlat va jamiyat hamkorligini kuchaytirish hamda ekologik islohotlarning manzilli va samarali bo'lishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Tadbir yakunida ekologik islohotlarning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash, parlament nazorati samaradorligini oshirish hamda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab olindi.



Ishchi guruhlarda

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HUQUQIY KAFOLATLARI KUCHAYTIRILADI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo'mitasi tadbirkorlik faoliyatining kafolatlarni mustahkamlashga qaratilgan qonun loyihasi muhokamasiga bag'ishlangan ishchi guruh yig'ilishini o'tkazdi.

Deputatlar, tegishli vazirlik va idoralar vakillari, ishchi guruh a'zolari va huquqshunoslar ishtirok etgan yig'ilishda qonun loyihasini birinchi o'qishda muhokama qilish davomida berilgan asosli takliflar tahlilga tortildi.

Ushbu qonun loyihasida tadbirkorlik subyektlarining tengligi, ishonchning himoya qilinishi, mulk daxlsizligi, ishbilarmonlikka oid qonunchilikning barqarorligi va aniqligi ular faoliyatining asosiy prinsiplari sifatida belgilanmoqda. Bu tadbirkorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish, davlat organlari aralashuvini cheklash va biznes yuritishda ishonchli muhit yaratish uchun xizmat qiladi.

Tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy turlari va vositalari belgilanayotgani esa biznes barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy faollikni oshirishga imkon beradi.

Farhod ZAYNIYEV, qo'mita raisi o'rinbosari:

— Mazkur hujjat mamlakatimizda tadbirkorlik uchun yanada qulay sharoit yaratish va ishbilarmonlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Qonun loyihasida belgilanayotgan normalar esa tadbirkorlik subyektlari faoliyatining huquqiy kafolatlarni kuchaytirish, xususiyl mulk daxlsizligini mustahkamlash va iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini kengaytirishga xizmat qiladi.

Ayni paytda qonun loyihasi quyi palataning yalpi majlisiga ikkinchi o'qishga kiritish uchun tayyorlanmoqda.

YURIDIK ATAMALARNING QO'LLANILISHI BIRXILLASHTIRILADI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasi tomonidan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishga tayyorlanmoqda.

Ushbu qonun loyihasining muhokamasiga bag'ishlab o'tkazilgan ishchi guruh yig'ilishida deputatlar tomonidan berilgan barcha takliflar tegishli vazirlik va idoralar vakillari, huquqshunoslar ishtirokida atroflicha ko'rib chiqildi.

Deputatlar ilgari surgan muhim takliflar qonun loyihasining mazmunan yanada puxta, huquqiy jihatdan asosli va amaliyotga samarali tatbiq etishga qulay bo'lishini ta'minlashga xizmat qilishi urg'ulandi.

Aytilganidek, mazkur qonun loyihasida qonunchilik hujjatlarida foydalanilgan ayrim tushuncha va yuridik atamalarini yanada puxta va ularning yuridik-texnik jihatdan to'g'ri bayon etilishini ta'minlashni nazarda tutuvchi o'zgartirishlarni kiritish taklif qilinmoqda.

Dilmurod ARTIQQOV, qo'mita a'zosi:



— Ishchi guruh yig'ilishida qonun loyihasi obdan muhokama etildi. Ayniqsa, undagi ayrim normalarni takomillashtirish bo'yicha berilgan takliflar hujjatning mazmunan puxta, huquqiy jihatdan asosli va amaliyotda samarali qo'llanilishiga imkon beradi. Mazkur hujjatdagi tushuncha va yuridik atamalarining qo'llanilishidagi noaniqliklarni bartaraf etishga, ularni birxillashtirishga xizmat qiladi.

Mas'ul qo'mitada qonun loyihasini takomiliga yetkazish ishlari davom etmoqda.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Matbuot xizmati.

QONUN BERGAN IMKONIYAT NEGA INOBATGA OLINMAYAPTI?

Mamlakatimizda soliq tizimini isloh qilish, uni soddalashtirish va raqamlashtirish bo'yicha izchil choralar amalga oshirilmoqda. Fuqarolar uchun elektron xizmatlar kengayishi, hisobotlarni avtomatlashtirish, onlayn to'lov tizimlarining joriy etilishi soliq madaniyatining oshishiga xizmat qilayotgani shubhasiz. Mutasar aytganda, soliq madaniyatini faqat to'lov intizomi emas, balki fuqarolarning davlat oldidagi mas'uliyatini anglash darajasini ham ifodalaydi. Shu ma'noda, bugun soliq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar aynan shu mas'uliyat va ishonchni mustahkamlashga qaratilgan.

Achchiq, ammo ochiq gaplar

Soliq kodeksining 423 va 440-moddalariga muvofiq, jismoniy shaxslar mol-mulk va yer solig'ini 15-aprel va 15-oktabrga qadar teng ulushlarda bo'lib to'lash imkoniyatiga ega. Ammo ayrim holatlarda fuqarolardan birinchi muddat o'tmasidan turib ikkinchi muddat soliq qarzdorligini ham muddatidan oldin undirish choralar ko'rilayotgani haqida murojaatlar ko'paymoqda. Natijada hali qonuniy to'lov muddati tugamagan qarzlari bo'yicha yoki to'langan holatlarda ham ba'zi hollarda sud qarorlari chiqarilib, fuqaro majburiy ijroga tortilayotgani haqli e'tirozlarga sabab bo'lmoqda.

Qolaversa, bu holat fuqarolarning oliyaviy byudjetini barqarorlashtirishda muammolar tug'dirmoqda.

Qonun bergan imkoniyat nega amaliyotda inobatga olinmayapti? Fuqaro belgilangan muddatgacha to'lovni amalga oshirsa-da, uning nomi nega qarzdorlar ro'yxatiga tushib qolmoqda? Bu jarayonda soliq idoralari aybdormi yoki ko'r-ko'rona hukm chiqarayotgan sud organlari?

Bunga bir misol: murojaatchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarga ko'ra, 2026-yil uchun hisoblangan yer va mulk soliqlari belgilangan tartibda — 15-aprel kuni to'liq to'langan. Termiz shahar soliq inspeksiyasi tomonidan to'lov muddati tugamasdan, ya'ni 14-aprel kuni sudga da'vo kiritilgan. Yana bir achinarli jihati shundaki, to'lov haqidagi ma'lumotlar soliq organlari

to'monidan 20-aprel kuni rasmiylashtirilib, fuqaroga kech yetkazilgan. Shu orada esa sud tomonidan qaror chiqarilib, u majburiy ijro organlariga yuborilgan. Fuqaro tomonidan berilgan e'tiroznomadan so'ng sud o'z qarorini bekor qilgan bo'lsa-da, mazkur holat amaliyotda jiddiy huquqiy savollarni yuzaga chiqarmoqda.

Mazkur vaziyatni mazmunan tahlil qilganda, bir nechta asosiy muammolar yaqqol ko'rinadi. Avvalo, qarz mavjud bo'lmagan holda undiruv jarayonining sud tartibida boshlanishi fuqaroning huquqiy kafolatlarga nisbatan jiddiy e'tirozlarni keltirib chiqaradi. Ikkinchidan, soliq ma'lumotlarining o'z vaqtida yangilanmasligi, elektron bazalar va sud organlari o'rtasidagi axborot almashinuvidagi kechikishlar tizimlararo muvofiqlikning yetarli darajada emasligini ko'rsatadi. Uchinchidan esa shu kabi uzilishlar fuqarolarning ortiqcha sarf-xarajat qilishiga, davlat bojlari to'lashiga va asossiz majburiy ijro jarayonlariga tushib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Huquqiy nuqtayi nazardan qaralganda, Fuqarolik protsessual kodeksining tegishli normalariga muvofiq, sud qarori faqat qarz mavjudligi

aniq va hujjatlar bilan to'liq tasdiqlangan holda chiqarilishi lozim. Agar qarz to'liq yopilgan bo'lsa yoki to'lov muddati tugamagan bo'lsa, u holda undiruv uchun huquqiy asos mavjud bo'lmaydi. Shu jihatdan mazkur holatda dastlabki materiallarning to'liq va aniq tekshirilmagani, ayrim bosqichlarda rasmiy ma'lumotlarning dolzarbligi ta'minlanmagani huquqiy jarayonlar sifatiga doir savollarni o'rtaga chiqaradi. Soliq madaniyati masalasi kengroq yondashilganda, uning mohiyati faqat fuqarolar tomonidan soliq to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirish bilan cheklanmaydi. Bu, ayni paytda, davlat organlarining ham aniq, shaffoflik va o'z vaqtida harakat qilish majburiyatini anglatadi. Chunki har qanday kechikish, noaniqlik yoki shoshmashoharlik bilan qabul qilingan qaror fuqarolarning davlat institutlariga ishonchiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, bunday holatlarning oldini olish uchun qator tizimli yechimlar muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, soliq to'lovlarini bo'yicha real vaqt rejimida yangilanadigan yagona elektron baza tizimini yanada takomillashtirish, sud va soliq organlari o'rtasidagi ma'lumot almashinuvi

to'liq avtomatlashtirish, sud qarori chiqarishdan oldin majburiy tekshiruv bosqichini kuchaytirish, fuqarolar uchun ortiqcha xarajatlarni kelib chiqqan holatlarda kompensatsiya mexanizmlarini joriy etish hamda soliq organlari xodimlarining mas'uliyatini aniq va qat'iy belgilash zarurati paydo bo'lmoqda.

Soliq tizimi qanchalik zamonaviy va raqamlashgan bo'lmasin, uning haqiqiy samarasi, avvalo, adolat va aniqlik bilan o'lchanadi. Fuqaro o'z majburiyatini to'liq bajargan holda no'rin undiruvga duch kelsa, bu nafaqat texnik yoki huquqiy xatolik, balki jamiyatdagi ishonch masalasi qat'iy yetkazadi. Shu bois soliq islohotlarining keyingi bosqichida asosiy e'tibor nafaqat byudjet tushumlarini ko'paytirishga, balki fuqarolar huquqlarini ishonchli himoya qilish va davlat boshqaruvidagi adolat tamoyillarini mustahkamlashga ham qaratilmo'g'i lozim.

Ibrohim YOQUBOV,
xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo'yicha doimiy komissiyasi raisi.

DAVLAT BYUDJETI IJROSINI NAZORAT QILISHDA PARLAMENTNING ROLI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi tomonidan "Davlat byudjetini shakllantirishda va ijrosini ta'minlashda parlamentning roli" mavzuida seminar o'tkazildi.

Unda xalq vakillari Davlat byudjeti mamlakat taraqqiyoti va ijtimoiy himoyasini ta'minlovchi asosiy moliyaviy hujjat ekanini hamda 2020-yildan boshlab byudjetning qonun shaklida tasdiqlanishi Hukumat va vazirliklar mas'uliyatini oshirib, davlat maqsadli jamg'armalari hamda tashqi qarz hisobidan ijrosi ta'minlanadigan loyihalarni to'liq parlament nazoratiga olish imkonini berganiga alohida to'xtalib o'tishdi.

Shuningdek, byudjet loyihasiga asos bo'luvchi fiskal strategiya va makroiqtisodiy prognozlar har yilning yuqori oyidayoq parlamentga taqdim etib kelinayotgani byudjet parametrlarini oldindan puxta tahlil qilish va xalq manfaatlariga moslash imkonini berayotgani qayd etildi.

Vazirliklar va idoralar vakillari, o'z navbatida, deputatlar tomonidan ko'tarilgan fikrlarga munosabat bildirib, parlament nazorati va hisobdorlikning kuchaytirilishi ijro intizomini oshirishda bosh omil bo'layotgani ta'kidlandi. Hukumat vakillari moliyaviy resurslarning shunchaki o'zlashtirilishi emas, balki ularning yakuniy natijadorligiga erishish vazirliklarning bosh vazifasiga aylanganini qayd etdi. Shu bilan birga, davlat dasturlari ijrosida maqsadli indikatorlardan ortda qolmaslik bo'yicha barcha zarur choralar ko'rilayotgani bildirildi.

Seminar ishtirokchilari muhokama jarayonida mazkur konstitutsiyaviy tamoyillarni hayotga tatbiq etish va byudjet jarayonlarida hisobdorlikni ta'minlash maqsadida tizimning qonuniy asoslari tubdan yangilanganiga alohida e'tibor qaratdi. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 94-moddasi bilan Davlat byudjeti

ijrosini nazorat qilish Qonunchilik palatasining mutlaq vakolati sifatida mustahkamlangani alohida aytiladi. Ushbu tamoyil asosida Hukumatning byudjet ijrosiga doir hisobotlarini parlamentga faqatgina tashqi xulosasi bilan birgalikda kiritishning majburiy tartibi belgilangan nazorat samaradorligini oshirishda muhim qadam bo'lgani ta'kidlandi.

Nargiza SALOMOVA, qo'mita a'zosi:



— Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi doirasida tizimga muhim raqamli instrumentlar va yangi institutlar izchil tatbiq etilmog'ida. Bu bo'yicha seminar qizg'in fikr almashildi. Xususan, byudjet shaffofligini yangi bosqichga olib chiqishda "Tashabbusli byudjet" doirasida joriy etilgan "deputat tashabbusi" amaliyoti muhim vosita bo'lmoqda.

Seminar, shuningdek, deputatlar natijaga yo'naltirilgan dasturiy byudjetlashtirishni kuchaytirish byudjetlashtirishni kuchaytirish mas'uliyati oshirilgani, endilikda ushbu organ vazirliklarning maqsadli indikatorlari bajarilishi bo'yicha har yili tashqi audit o'tkazib, tegishli xulosalarni Davlat Mahkamasi orqali majburiy tartibda Qonunchilik palatasiga kiritib borayotgani alohida qayd etdi.

Yakunda qo'mita a'zolari tomonidan parlament nazorati mexanizmlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan muhim tashabbuslar ilgari surildi.

"Xalq so'zi".

YANGILIKLAR xabarlar
TAFSILOTLAR

Tadqiqotdan amaliyotga

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali professori Sayyora Murodova rahbarligida Orol dengizining qurigan tubidagi o'ta sho'r tuproqlarda o'simliklar hayotchanligini oshirishga qaratilgan amaliy loyiha ijrosiga kirishilgan.



Loyihada professor-o'qituvchilar bilan bir qatorda, iqtidorli talabalar ham faol ishtirok etyapti. Tadqiqot davomida hududning sho'r tuproqlaridan mingdan ortiq mikroorganizmlar namunalari ajratib olinib, eng samarali 100 tasi asosida maxsus mikrobiologik kolleksiya yaratildi.

Ular negizida ishlab chiqilgan "Zamin-M" va "Rizoto'plam" biopreparatlari Orolbo'y sharoitida o'simlik urug'larining unuvchanligi hamda chidamliligini oshirishda yuqori samara ko'rsatayotir.

Mazkur ilmiy ishlanma Orolbo'yda ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilish bilan birga, talabalarining ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etishi hamda amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash uchun ham muhim maydon vazifasini o'tamoqda.

"Orol bolalari" oromgohida robototexnika klubi ochildi



Mamlakatimiz Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tashabbusi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a tumanidagi "Orol bolalari" oromgohida robototexnika klubi tashkil etildi.

Ilk amaliy mashg'ulotlarga bolalar robototexnika va muhandislik yo'nalishlari bo'yicha dastlabki bilimlarga ega bo'lib, futbol robotlari bilan ishlash, LEGO konstruksiyalarini yig'ish, "3D" modellashtirish va "3D" printer texnologiyalari bilan tanishish, shuningdek, plastik butiklardan raketa yasash kabi qiziqarli mashg'ulotlarga jalb etildi.

Bunday innovatsion mashg'ulotlar yoshlarning zamonaviy texnologiyalarga qiziqishini oshirish, ijodiy va muhandislik tafakkurini rivojlantirish, amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Global plastik muammosiga zamonaviy yechim

Toshkent davlat agrar universitetining 1-bosqich talabasi Saida Saydirahmonova global plastik muammosiga innovatsion yechim topdi.

Gap shundaki, uning "Mirzo Ulug'bek vorislari" tanlovining respublika bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan "EcoBind" (ekopolimer beton) loyihasi plastik chiqindilarni qayta ishlash, ulardan ekologik xavfsiz qurilish materiali yaratishga qaratilgan.

Loyihaning asosiy afzalligi parchalanishi uzoq muddat talab qiluvchi plastik chiqindilarni qayta ishlash, an'anaviy beton sanoatiga xos bo'lgan zararli gazlar miqdorini kamaytiradi va "yashil" iqtisodiyot tamoyillariga to'liq javob beradi. Shu bilan birga, ushbu innovatsion texnologiya asosida olingan mahsulot mahalliy muqobilari nisbatan ancha yengilroq, arzonroq hamda yuqori mustahkamlikka egaligi bilan ajralib turadi.

"Xalq so'zi".

MARKAZIY OSIYO SUV RESURSLARI

Ulardan oqilona foydalanish bo'yicha samarali yechimlar

Suv xalqimizning hayotiy eng muhim strategik resurslaridan biridir. Markaziy Osiyo davlatlari uchun suv ta'minoti masalasi qurg'oqchil iqlim, iqtisodiyotning qishloq xo'jaligiga yuqori darajada bog'liqligi hamda suv resurslarining notekis taqsimlangani sababli alohida ahamiyat kasb etadi. So'nggi o'n yilliklarda suv muammosi mintaqaning barqaror rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylandi. Aholi sonining ortishi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining kengayishi, urbanizatsiya jarayonlari va iqlim o'zgarishlari bosimni kuchaytirib, suv resurslarini boshqarishda yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Suvdan oqilona foydalanish bugungi kunda naafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy vazifaga ham aylangan.

Nuqtai nazar

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasida yer, yer osti boyliklari qatorida suv ham umummilliy boylik ekanligi, ulardan oqilona foydalanish zarurigi va ular davlat muhofazasiga olinganligi qat'iy belgilab qo'yilgan.

Markaziy Osiyodagi obihayot resurslarining asosini Tyan-Shan va Pomir tog'laridan boshlanuvchi Amudaryo hamda Sirdaryo suv manbalari tashkil etadi. Oqimning katta qismi Qirg'iziston va Tojikiston hududlarida shakllansa, uning asosiy iste'molchilari O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston hisoblanadi. Shu bois mintaqada mazkur tabiiy resurslar transchegaraviy xususiyatga ega bo'lib, davlatlar o'rtasida doimiy hamkorlik va muvofiqlashtirishni talab qiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining sessiyalarida va Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi yig'ilishlarida Markaziy Osiyo davlatlarining suv va ekologiya sohasidagi sa'y-harakatlarini birlashtirish bo'yicha qator konstruktiv tashabbuslarni ilgari surdi.

Mintaqada suvning eng yirik iste'molchisi qishloq xo'jaligidir. Umumiy suv sarfining qariyb beshdan to'rt qismi sug'orishga to'g'ri keladi.

Irrigatsiya tufayli paxta, sholi, sabzavot, meva va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtiriladi. Biroq ko'plab sug'orish tizimlari o'nlab yillar avval qurilgan bo'lib, bugungi kunda ularni modernizatsiya qilish zarurati mavjud. Kanallarda filtratsiya, bug'lanish va infratuzilmaning eskirishi sababli katta hajmdagi suv yo'qotilmoqda. Bundan tashqari, ortiqcha sug'orish va drenaj tizimlarining yetarli darajada ishlamasligi natijasida tuproqlarning sho'rlanishi kuchaymoqda. Yerlarning degradatsiyasi haydolonlikni pasaytirib, qishloq xo'jaligi maydonlarini tiklash uchun qo'shimcha mablag' talab etmoqda.

Keyingi yillarda iqlim o'zgarishi Markaziy Osiyo suv resurslariga tobora kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda. Mintaqada o'rtacha yillik haroratning oshishi, qurg'oqchilik sonining ko'payishi va ekstremal ob-havo hodisalarning tez-tez kuzatilishi buning yaqqol dalili. Ayniqsa, Tyan-Shan va Pomir muzliklarining tez sur'atlarda erib borayotgani jiddiy xavotir uyg'otmoqda. Mazkur muzliklar mintaqaning tabiiy chuchuk suv omborlari vazifasini bajaradi. Qisqa muddatli istiqbolda muzliklarning erishi daryolardagi suv oqimini ko'paytirishi mumkin. Biroq uzoq muddatli istiqbolda muzliklar hajmining qisqarishi suv resurslarining kamayishiga olib keladi. Bu esa qishloq xo'jaligi, energetika va aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash



bug'lanishi kuchayadi. Natijada avvalgi hajmdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun yanada ko'proq suv talab etiladi.


sohalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Haroratning oshishi natijasida tuproq va suv havzalarida namlikning turli mintaqaviy mexanizmlar va komissiyalar tashkil etilgan. Shunga qaramay milliy manfaatlardagi farqlar, gidrologik sharoitlarning o'zgarishi va suvga ehtiyojning ortib borishi bilan

dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu bilan cheklanmay, gidrotexnik infratuzilmani modernizatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Kanallarni rekonstruksiyalash, suv hisobini yuritish va nazoratning avtomatlashtirilgan tizimlariga o'tish yo'qotishlarni kamaytirib, undan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Suv xo'jaligini raqamlashtirish va zamonaviy monitoring usullarini qo'llash ham istiqbolli yo'nalishlardan. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tarkibini takomillashtirish ham dolzarb vazifalardan sanaladi. Eng qurg'oqchil hududlarda kam suv talab qiladigan ekinlarni yetishtirishga bosqichmabosqich o'tish suv resurslariga tushayotgan yuklamani kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, aholining ekologik savodxonligini oshirish va suvga nisbatan mas'uliyatli munosabat madaniyatini shakllantirish ham katta ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyo suv resurslari mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi, oziq-ovqat xavfsizligi va aholi farovonligining asosidir. Biroq suv tanqisligi, ekologik muammolar, iqlim o'zgarishlari va transchegaraviy boshqaruvdagi murakkabliklar ushbu resurslardan foydalanishni tobora qiyinlashtirmoqda. Mazkur muammolarini hal etish faqat zamonaviy texnologiyalar, samarali davlat boshqaruvi va xalqaro hamkorlikni uyg'unlashtirgan kompleks yondashuv asosidagina mumkin. Suv resurslaridan oqilona foydalanish mintaqaviy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanishi zarur. Faqat obihayotga ehtiyojkorona munosabat va davlatlarining hamjihat harakatlari orqali kelajak avlodlar uchun barqaror rivojlanish hamda suv xavfsizligi ta'minlanadi.

Saida HAKIMOVA,
Farg'ona davlat universiteti dotsenti.



Suv muammolarini hal etishning eng muhim yo'nalishlaridan biri - zamonaviy suv tejovchi texnologiyalarni qo'llash. Tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish usullari an'anaviy sug'orish tizimlariga nisbatan suv sarfini sezilarli darajada kamaytiradi. Mamlakatimizda ham bunday texnologiyalarni keng joriy etishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu bilan cheklanmay, gidrotexnik infratuzilmani modernizatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Kanallarni rekonstruksiyalash, suv hisobini yuritish va nazoratning avtomatlashtirilgan tizimlariga o'tish yo'qotishlarni kamaytirib, undan foydalanish samaradorligini oshiradi.

buq'liq muammolar saqlanib qolmoqda. Transchegaraviy suv resurslarini samarali boshqarish doimiy muloqot, axborot almashinuvi va o'zaro manfaatli qarorlar ishlab chiqishni talab qiladi.

Suv muammolarini hal etishning eng muhim yo'nalishlaridan biri - zamonaviy suv tejovchi texnologiyalarni qo'llash.

Markaziy Osiyoning yirik daryolari transchegaraviy bo'lgani sababli suv taqsimoti masalasi ko'pincha bir necha davlat manfaatlariga daxldor bo'ladi. Yuqori oqimdagi davlatlar suv resurslaridan gidroenergetika

Tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish usullari an'anaviy sug'orish tizimlariga nisbatan suv sarfini sezilarli darajada kamaytiradi. Mamlakatimizda ham bunday texnologiyalarni keng joriy etishga qaratilgan

YOZYOVONDA «YERSIZ DEHQONCHILIK» TAJRIBASI

BALIQCILIK BILAN SHOLICHILIKNI UYG'UNLASHTIRISH IMKONINI BERDI



Markaziy Farg'ona hududida joylashgan Yozyovon tumani yaqin-yaqin gacha iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha viloyatda eng quyi o'rinlarda yurardi. Sababi, asosan, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashtirilgan ushbu hududda sanoat tarmoqlari rivojlanmagan edi. Bugun esa bu yerda tom ma'noda yangi hayot shukhi kezmokda.

Innovatsiya

Darhaqiqat, davlatimiz rahbarining joriy yil 27-28-aprel kunlari Farg'ona viloyatiga tashrif chog'ida Yozyovonni har jihatdan yuksaltirish bo'yicha belgilab berilgan ustuvor vazifalar hayotbaxsh islohotlarga yangi ruh baxsh etayotir. Buni iqtisodiyotga sun'iy intellektni keng joriy etish, IT klasterlar tashkil qilish, quyosh va shamol stansiyalari qurish kabi ko'plab investitsiyaviy loyihalarni ijrosiga kirishilgani misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Quvonarlisi, bunday yangilanishlar agrar sohada ham kuzatilyapti. Chunki an'anaviy dehqonchilik bilan cheklanib qolingani bois cho'l hududlaridagi minglab gektar ekin yerlari suvsizlik va infratuzilma yo'qligi sababli iqtisodiy

aylanmadan tashqarida qolayotgandi. Prezidentimiz bu galgi tashrif chog'ida tumandagi 1800 gektar foydalanilmay yotgan ana shunday yerlarni o'zlashtirish va qayta muomalaga kiritish bo'yicha topshiriq berdi.

Aytish joizki, innovatsion va intensiv agrotexnologiyalar keng qo'llanilayotgani baliqchilik bilan sholichilikni uyg'unlashtirish imkonini berdi. Gap shundaki, Yozyovondagi ko'lining 100 gektar suv yuzasida kassetalari usulda organik sholi yetishtirishga kirishildi.

- Hisob-kitoblarga ko'ra, tumandagi 88 ta baliqchilik fermer xo'jaligining 2008 gektarlik hovuzlarida ana shu usulda sholi parvarishlash imkonini bor, - deydi Yozyovon tumani hokimligi mutaxassisi Dilmurod Mirziyayev. - Ayni paytda shuning 88 gektarida

yangi usulda sholi yetishtirish uchun amaliy ishlarga kirishildi. Mazkur zamonaviy agrotexnologiya yozyovonlik mirdoshkorlarga baliq yetishtirish barobarida "yersiz dehqonchilik" qilish imkonini beradi.

Hozirda tumandagi "Hamkor namuna" fermer xo'jaligida urug' va ko'chat usulida ekilgan sholi bir tekis undirib olindi. Farg'ona viloyati agroxizmatlar markazi mutaxassislari hamda Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti olimlari bilan faol hamkorlik yo'lga qo'yilgani ekin parvarishida qo'l kelmoqda.

"Suzuvchi sholi" ekib, undan mo'l hosil olish tajribasi Xitoy, Vetnam, Filippin, Tailand kabi mamlakatlarda yaxshi rivojlangan. Bu usulning yana bir afzal jihati shundaki, mahsulot to'liq organik holda yetishtirilgani tufayli ekologik toza, yuqori sifatli hosil olinadi. Aniqlik, u an'anaviy usulda parvarishlanib olingan guruchga qaraganda sifat va narx bo'yicha ikki barobar ustunlikka ega.

Farg'ona viloyati agroxizmatlar markazi direktori o'rinbosari Omadbek Rahimovning aytishicha, sholichilikdagi ushbu innovatsion yondashuv suv resurslaridan samarali foydalanish, yer maydonlarini tejash imkonini beradi.

Shu paytgacha Yozyovon tumani har yili an'anaviy usulda o'rtacha 2500 - 2800 gektar yerga sholi ekilib, 15,5 ming tonna hosil olingan bo'lsa, endilikda raqamlar karrasiga oshishi tayin. Zero, yangi tajriba Yozyovonda sholichilik istiqbolini ta'minlab, eksport imkoniyatlarini kengaytirishi bilan ham g'oyatda ahamiyatli.

Botir MADIYOROV
("Xalq so'zi").

Tarix zarvaraqalarida

BEDILNI XALQQA TANITGAN XATTOT

Bir zamonlar hindistonlik savdogar Mirzo Abdulqodir Bedilning qo'lyozma devonini olib kelgani haqidagi xabar buxorolik nazm ixlosmandlari o'rtasida shov-shuv bo'ldi. Bu gapni eshitgan amirning ham halovati buzildi. Shoirning o'z qo'li bilan bitilgan tabarruk asarni ko'rish, uni sotib olish niyatida mulozimlarini savdogar huzuriga yubordi.

Ammo olis yo'l bosib kelgan savdogar bo'lyozma bebaholigini vaj etib, sotgani unamadi. Ilojsiz qolgan mulozimlar mushkul ahvolda tushdi: sarog'ya quruq qo'l bilan qaytish kundaga bosh qo'ymoq bilan barobar. Ammo o'lmdan bo'lak har qanday mushkulotning yechimi bor. Mulozimlar bir muddat o'yg'a tolib, savdogardan Buxoroda uzoqroq qolishni so'radi. U ko'ndi va "qirg' kun qo'noq bo'laman", deya rozilik berdi.

- Shundan so'ng amirning xos vakillari hukmdor nomidan "Qaysi kotib shu qo'lyozmani qirg' kun ichida risoladagidek ko'chirib nuxsa olsa, ming tillo pul va hadyalar berilur", deya shaharu qishloqlarga jar solishadi, - deydi xattotlik san'atiga oid tadqiqotlar olib borgan buxorolik olim Husen Jo'rayev. - Biroq qisqa muddatda shunday nozik va qiyin, mas'uliyatli ishni bajarishga jur'at etadigan xattot bormikan? O'rtaga shu muammo qalqib chiqdi. Baxtga qarshi kotiblardan sado chiqmadi. Shunda Buxoroning Gulzor mavzesida umrguzaronlik qiluvchi Mirzo Muhammad Fozil xattot bu yumushni zimmasiga oldi.

Aytishlaricha, xattot hujrasiga qamalib olgan ko'yi qirg' kun davomida qo'lyozma devon asliyatidan nuxsa ko'chirish bilan mashg'ul bo'ladi. Muddat tugagach Arka - amir sarog'ya yo'l oladi. Buxoro aholisi ham bu kuni uzoq kutgan, zero, ko'ngillar Bedil she'riyatidan bahramand bo'lmoq havasi bilan limmo-lim to'lgan edi.

Buni qarangi, xattot tushmagur taxminan besh yuz varaq hajmdagi devondan bir emas, ikki nuxsa ko'chirishga ulguragan ekan. Ularning biri - amir uchun, ikkinchisi esa o'ziga, o'zi orqali nazm ixlosmandlariga mo'ljallangan edi. Va'daga ko'ra, xattotga iltifot ko'rsatildi. Pul berilib, boshdan oyoq sarpo qilindi.

- 1803-yilda ro'y bergan bu voqea sabab Bedil devoni Movarounnahrqa tarqalib keldi, - deb davom etadi Husen Jo'rayev. - Bir zahmatkash xattotning mashaqqatli mehnati ortidan minglab kishilar shoir she'rlarini mutolaa qilish, unga go'yibona do'st tutinish, ma'naviy ozuqa olish baxtiga muyassar bo'ldi.

Istam IBROHIMOV
("Xalq so'zi").

Endilikda pedagogika yo'nalishlarida kadrlar tayyorlash sifatini baholash maqsadida talabalarining bilimlari tashqi diagnostikadan o'tkaziladi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi - 229. Buyurtma G-1242. 25 499 nusxada bosildi. Hajmi - 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmurotov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir H. Qarshiyev.
Musahhif Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni - 21.25 Topshirildi - 00.15 **1 2 3 4 5 6**